

---

## 2-SEKTOR XABARLARI: BO'SH ISH O'RINLARI MEHNAT YARMARKASI TASHKIL ETILDI



### **2-SEKTOR XABARLARI: BO'SH ISH O'RINLARI MEHNAT YARMARKASI TASHKIL ETILDI**

Bugun, Qo'shtepa tumani prokuraturasi tashabbusi bilan sektorda mas'ul idoralar hamkorligida "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan mehnatga layoqatli fuqarolar, shu jumladan yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida "Bo'sh ish o'rinlari" mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Unda 63 ta ish beruvchi korxonalar va tashkilotlar o'zlarida mavjud 250 ta bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etishdi.

Mehnat yarmarkasida 100 dan ortiq fuqarolar qatnashib, ishsiz ayollar va yoshlarning 21 nafari doimiy, 28 nafari mavsumiy ishga joylashtirildi hamda 14 nafariga qiziqishlariga qarab kasb-hunarga o'qish uchun yo'llanmalar berildi.

Shuningdek yarmarkaga jalb qilingan fuqarolarga mehnat qonunchiligi, tadbirkorlik va o'zini-o'zi band qilish bo'yicha maslahatlar berildi.

**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-03-19 20:38:26